

---

JO'RABEK JAHON

---

**TUYG'ULAR**  
**SHAHARCHASI**

*She'rlar*



«ADIB»

Тошкент – 2014

UOK: 821.512.133-1

KBK: 84(O')7

J39

**Mas'ul muharrir:**

**Sirojiddin Sayyid,**

*O'zbekiston xalq shoiri*

*Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
Yoshlar bilan ishlash bo'limi tomonidan  
nashrga tavsiya etilib, «Ijod» fondi tomonidan  
moliyalashtirilgan.*

**Jahon, Jo'rabek**

J59 Tuyg'ular shaharchasi: she'rlar/J. Jahon. –  
Toshkent : «ADIB» nashriyoti, 2014. – 32 b.  
ISBN 978-9943-4277-4-7

**UOK: 821.512.133-1**

**KBK: 84(O')7**

ISBN 978-9943-4277-4-7      © J. Jahon, 2014  
© «ADIB» nashriyoti, 2014

---

## MO‘JAZ MO‘JIZA

*“Birinchi kitobim” ruknida chop etilayotgan kitoblar yurtimiz adabiy hayotida muhim voqelikka aylandi. Ayni shu xayrli amal tufayli o‘nlab yosh qalamkashlarning to‘plamlari keng o‘quvchilar ommasiga yetib bordi va, tabiiyki, bugun o‘z aks-sadosini berayotir.*

*O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan har yili o‘tkazib kelinayotgan respublika yosh ijodkorlar seminarida o‘nlab yangi nomlar, yosh iste’dodlar kashf etilmoqda. She’riyat, nasr, dramaturgiya, publisistika, bolalar adabiyoti, adabiyotshunoslik kabi qator janrlarda muvaffaqiyat bilan qalam tebratayotgan yosh ijodkorlarning eng yaxshi asarlari muttasil nashr etib kelinmoqda. Jumladan, 2013-yilda Do‘rmon ijod uyida bo‘lib o‘tgan yosh ijodkorlar seminarida ham*

---

*ana shunday qo'lyozmalar saralab olindi va ular jajji kitoblar – mo'jaz mo'jizalar sifatida siz muhtaram kitobxonlar hukmiga havola qilinmoqda.*

*Bu ruknda nashr etilayotgan kitoblar adabiyotga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning samarasidir. O'ylaymizki, yaratilgan bu imkoniyatlar yosh ijodkorlarning baland parvozlariga zamin vazifasini o'taydi.*



## UMR MANZARASI

Qulab tushgan daraxtni ko'rib,  
"Yaxshi o'tin bo'pti", deb qo'yar oshpaz.  
O'lim haqligiga ishonadi chol,  
"Men mangu yashayman", deb  
yurmas boshqa.  
Yig'laydi urushda qatnashgan odam,  
Suyanchi yo'q ekan, deb o'tar do'stsiz,  
Kuyadi farzanddan ayrilgan ona,  
Qarsillab ag'nagan daraxtni ko'rib.



## OSMONNING USTUNI

Ey, osmonga suyangan daraxt,  
Yulduzlarni qitiqlagan gul,  
Sen ne deya qilgan eding ahd,  
Tutindingmi quyoshga o'g'il?

Osmonlarni ko'tarib ko'kka,  
Qadding sira bo'lmagandir dol.  
Oyga qo'nim berib tunlari  
Neni xayol surasan, ey chol?

Tushunmaymiz – sening vazifang  
“Ko'k gumbaz”ga bo'lishmi tirgak.  
Seni anglash uchun kamida  
Yurak kerak, osmonday yurak.



## **TAYOG'IDA QANCHA HIKMAT BOR**

Tayog'ida qancha hikmat bor,  
Necha asr berkingan unda?  
Shu hikmat-la to'zg'itib tunni,  
Qarshi olar quyoshni kunda.

Bu yerlardan ne-ne zot o'tgan,  
Oldin Xizr, keyin bu odam.  
Varaq lasam o'tmishni bir-bir,  
Yashagandek bo'lar avval ham.

Adashmasam, bilmaydi o'zi,  
Kimdan meros bu tayoq – hikmat.  
O'z yurtini sevinib ko'rib,  
Uni Shiroq deb o'ylaysiz naqd.

## TUN VA TONG

Tun.

Tiq-tiq.

Derazamni chertib

Yig'laydi yomg'ir.

Nimadir demoqqa

Juda ham intiq,

Qulog'imni tutaman

Sekin:

– U qizdan nari yur,

– U qizdan bekin.

Qulog'imga shivirlar

Yomg'ir:

– U qizga ishonma,

– U qiz toshbag'ir.

Oynani yopaman ohista.

– Nega ishonmaysan?

– Nimaga, axir?!

Oynam yopish oldi

aytgan so'zi shu,

Tag'in chertib-chertib

nelar derdi u.





Tong.  
Hamon oynam chertib  
Yig'laydi yomg'ir.  
Quloq solmay qo'ydim  
Bu oh-u zorga.  
Ko'chaga otlandim,  
Qaygaligi sir.  
Yomg'ir o'git qildi  
Aylanib qorga:  
– Ishonma,  
– Ishonma  
– Sen u dildorga.  
Uchrashuvga bordim  
Men kechikib sal,  
Kechikkanim barin  
Qilib qo'ydi hal.  
Endi boshim uzra  
Yog'ar edi do'l:  
– Battar bo'l,  
– Battar bo'l,  
– Battar bo'l.

## **YILLARKI O'TSA-DA...**

Yillarki o'tsa-da surating  
Hali ham nimadir demoqchi.  
Oynai jahonda hansirab,  
Bo'rivoy quyonni yemoqchi.

Yelkangda obergan ro'molim,  
Shamolda hilpirab turganday.  
Yoningda dugonang ro'molsiz  
Arazlab labini burganday.

Nimadir demoqchi bo'larding,  
Qo'lingdan tutsam men ohista.  
O'g'ilcham ishtonin ho'l qildi,  
Baqirdim: – Ol buni, Shohista.

Ro'molsiz dugonang rafiqam,  
Bugun ko'p har turli ro'moli.  
Bo'rivoy quyonni tutgandi,  
Sho'rlikni taladi chumoli.

Telefon yoqimli jiringlar,  
Ko'tardim. Kim nima demoqchi?  
Tanishroq bir ovoz yangradi:  
– Bayraming muborak, aldoqchi...



\* \* \*

Kampir cholga suyanib qolgan,  
Chol o'rganib qolgan kampirga.  
Yolg'iz o'g'lin kutishib qarar,  
Qirga tomon ikkisi birga.

Tepalikka chiqib olib uy,  
Boqib turar yo'lga oshifta.  
Yigitning-chi, maqsadi bitta  
Va qo'lida ikkita chipta.

Xuddi uni ming yil kutganday,  
Istiqbolga chiqar yalpizlar.  
Sekin kirib borar qishloqqa,  
Yolg'izoyoq yo'ldan juft izlar.



## SEN KETDING

Sen ketding...  
Yenglarim silkib qo'l,  
Ayriliq azobin angladi.  
Shu kuni...  
Ko'yलगim buncha ho'l,  
Yig'ladi, yig'ladi, yig'ladi.

So'ng seni eslatib surating,  
Oxiri sarg'ardi g'azabdan.  
Bilmadim, dastro'mol, qaysidir  
gapdan  
Bag'rini tig'ladi.

Paypoq poyabzalin kiydi-yu  
Qaygadir shoshdi va jo'nadi.  
Hayot shu!  
Qismat shu!  
Taqdir shu!  
Peshona boriga ko'nadi.  
Sen ketding...  
Shu kuni...  
Bir junun dunyoga sig'madi.



## **YASHOLMASANG KERAK**

Yasholmasang kerak men bilan,  
Chidayman deb aytsang ham illo.  
Tortmani ochasan – chiqadi so‘zlar,  
So‘z yig‘aman, yig‘masdan tillo.  
So‘zlar chiqaverar yostiq ostidan,  
Javonlarning ichida ham shu.  
Cho‘ntagim kovlaysan,  
Hamyon titasan.  
So‘zlar, mana, So‘zlar,  
Yana So‘zlar-ku.  
Oshxonaga kirasan chopib,  
Ochasan qozonni,  
So‘z chiqar kamday.  
Tortinmasdan yuradi uyda,  
Mehmon bo‘lib kelgan ukamday.  
Muzlatgichni ochasan, muzlar  
Eritasan ichmoq uchun suv.  
Muzlar erib, boshlar tomchilab,  
So‘z tushadi xunuk va suluv.  
Jahling chiqib, olib jomadon,  
Ketdim deysan,  
Yig‘laysan ho‘ng-ho‘ng.

Yana uyga qaytib kelasani,  
Jomadonni ochganingdan so'ng,  
So'zlarimni qaytib berasan.

Yasholmasang kerak men bilan.

### SAVOL

Sevgi menga kimdan meros qolgan ekan?

– Otamdanmi, desam, otam onamlarni,

Keyin bilsam, sevmay turib olgan ekan.

– Bobomdanmi, desam, bobom  
momomlarni

Faqatgina chimildiqda ko'rgan ekan.

Sevgi menga kimdan meros qolgan ekan?



## **GULIM**

Gulim, kelajakdan umidingiz to'q,  
Go'yoki Xizrni ko'rgan odamday.  
Kulsangiz nimadir kamlik qiladi,  
Yig'lasangiz nedir yetishmaganday.

Har bir sepkilingiz baxtga nishona,  
Shodlikka bo'y cho'zgan kipriklaringiz.  
Qalbim koshonadir daryo ortida,  
Qachon tutashadi ko'priklarimiz.

Pari ekaningiz hech kimga aytmam,  
Xuddi odamlardek yashayvering xo'p.  
Bilsangiz, dunyoda yomonlar bisyor,  
Ishoning, yaxshilar ulardan-da ko'p.

Axir, tug'ilgandan o'lgunga qadar  
Yashab bo'lmasligin bildim ezilib.  
Bugun sepkilingiz ko'rib nogahon,  
O'zimga baxtlidek ketdim sezilib.

## VIJDON AZOBI

Eshigimni qulfladim ichdan,  
Derazadan tosh otdim Unga.  
Nega deya so'radi.  
– Shunga.

Derazamga pardalar tutib,  
Chiroqni ham o'chirdim, yo'qman.  
– O'g'lim, ovqat yeysanmi?  
– To'qman.

Ko'rupa ichra berkindim qattiq,  
Ko'zim yumdim, qulog'im yopdim.  
Birdan yurak qichqirib aytdi:  
– Topdim!







## **TUSHUNAMAN**

Tushunaman: boshqa chorang yo'q,  
Alamingni olasan yoshdan.  
Qo'y, taqdirga uraverma do'q,  
Dunyo qayta yaralmas boshdan.

Orzularing oralab yurib,  
Nogoh to'qnash kelasan toshga.  
Ming yiqitsa, ming bora turib,  
Tik qarolsang – baxtdir quyoshga.

Mayda gaplar qilolmasin dol,  
Maqsadingdan aslo tonmagin.  
G'amlar bir kun ketar, kutib ol,  
Kulib kelayotir omading.



## MENGA JUDA KERAKSAN

Menga juda keraksan, dildor,  
Sen hayotim ma'nosi, naqshi.  
Qanday yaxshi: Seni sevaman!  
Lek sensizlik undan-da yaxshi.

Hushyorlikni suymaydi hushim,  
Ishq mayidan buncha bo'ldim mast.  
Sen jonimga jon bag'ishlaysan,  
Men jonimga qilgim kelar arz.

Tushlaringda izg'iydi kimlar,  
Koshki edi, buni tushunsang.  
Dahshatmasmi, men jim yotaman,  
Sen kimningdir tushiga kirsang.





## **TALABALAR SHAHARCHASI**

Xotiramdan ketmaydi hamon  
Go'zal oqshom, uning darchasi.  
Yotoqxonada jannatiy makon,  
Yer sharining mitti sharchasi –  
Talabalar shaharchasi.

Sezilmaydi sog'inch-u firoq,  
Ko'rganlarim mehr – barchasi.  
Yarmisi ne, bilmayman, biroq,  
Yuragimning yarim parchasi –  
Talabalar shaharchasi.

Quvonchlar ko'p, g'amlarimiz kam,  
Keladi-da ko'pning havasi.  
Pand bermasa, agar xotiram,  
O'tgan go'zal chog'lar, chamasi –  
Talabalar shaharchasi.

Shuncha qizlar qolib, topganim –  
Qizchalarning eng zaharchasi.  
Sessiyalar qiynar, yopganim –  
Navro'z, yangi yilning archasi...  
Talabalar shaharchasi.

Ko'zimizga cho'p qadolar kim,  
O'zimizdan bo'lsa barchasi...  
Dunyolarga keldi hayqirgim:  
Serquyosh yurt serquyoshchasi –  
Talabalar shaharchasi.

## **IKKIMIZ HAM YERDA YASHAYMIZ**

Ikkimiz ham yerda yashaymiz,  
Farishtaga o'xshaysan biroz.  
Farqimiz, sen yomon ko'rasan,  
Men juda ham sevaman, xolos.

Nega buncha qilasan qahr,  
“Sevmayman” deb ichmagil qasam.  
Ishonmayman, ne qilay axir,  
Ko'zlaringda yursam, yashasam.

Bo'htonlarga ishonmasman, yo'q,  
Shubhalarga qilurman shubha.  
Nimagadir sendan ko'nglim to'q,  
Nimagadir menda ko'ngling yo'q.



Ikkimiz ham yerda yashaymiz,  
Uchib ketma faqat arshingga.  
Sevib qolar eding, farishtam,  
Qarab qo'ysang agar qarshingga.

## **VIJDON**

Otamning ko'ziga tik boqqanim chin,  
Onamga qattiq so'z aytganim ham rost.  
Bundan xijolat ham bo'lmaganman hech,  
Bir oqshom uxlamay chiqqanman, xolos.  
Nega sening ko'zingga, ayt, tik  
boqib bo'lmas sira ham,  
VIJDON?..



## **SALOM AYTMAANG**

Salom aytmang,  
Alvido aytmang,  
Sog'inchlarim qachon tinadir.  
Ketib qolmang  
Yo'q-yo'q... Siz qaytmang,  
O'ylab toping boshqa nimadir.  
Shunday narsa o'ylab topingki,  
Eshitmagan bo'lsin hech kimsa.  
Havas qilsin,  
"Dod" deb yig'lasin...  
Taqdirimiz eshitsa, bilsa.  
Qismatimiz tinimsiz ayta,  
Quyosh kuysin,  
Shamollar yelsin –  
Hazrat Navoiylar tug'ilsin qayta,  
Hazrati Boburlar dunyoga kelsin!



## OSMONNI YUPATISH

Qanday yupatishni bilmayman, tavba,  
Ne so'z bo'lishini bilmayman malham.  
Yo qo'rqaman, yoki sig'maydi haddim –  
Quchay desam uni bag'ringa mahkam.

Qancha urinsam ham bo'lmaydi doim,  
So'zlarimga uning ko'ngli to'lmaydi.  
Odamni yupatish mumkindir, do'stlar,  
Osmonni yupatib bo'lmaydi.



## QISH

Xayrlashgan edim erta bahorda,  
Yozda ko'rgan edim uni so'nggi bor.  
Otamning sochida edi o'shanda,  
Bugun yer yuzini qoplab olgan qor.

Qarib borar ekan bahor muttasil,  
Ish tashlasha boshlar yaproqlar g'ij-g'ij.  
Qor yog'ar, ustiga qular bir fasl.  
Kuz yurak changallar – tutadi xuruj.

Uyg'onib ketasan tongda daf'atan,  
G'olib bo'lgandayin yig'laysan jangda.  
So'ngra voz kechasan barcha nafratdan,  
Dunyoni tomosha qilib oq rangda.





## **SURATLAR**

Xonamda tun. Ana, devorda  
Jilmayadi ming yillik surat.  
Tushunmadim ne sabab? Nega?  
Buncha shovqin soldi sukunat.

Jang boshlanar – dahshatlar jangi,  
Shamshir qattiq to'qnashar – chaqin!  
To'kilganda yulduzlar rangi,  
Kun lashkari keladi yaqin.

Tundan chimdim qoladi – soya,  
Kun lashkari kelganda g'olib.  
Ishonmasdan meni bir qizcha  
Hamyoniga yuradi solib.

## XAYOL

U yoqlarda she'r yozmasdim men,  
Chumolicha chiqmasdi sasim.  
Tangrim meni yubordi yerga,  
Senga tushib qolgach havasim.

Sen jismimga qadama nigoh,  
Ijaraga olganman uni.  
Jannatlardan voz kechdim, ey moh,  
Go'zalliging ko'rganim kuni.

Sevaman! Lek gulim, bilmadim,  
Nasib etadimi visoling.  
Men seni shunchaki sevmadim,  
Tangrimni eslatdi timsoling.



## **SIZ MENING**

Siz mening kimligim bilmaysiz hali,  
Qorbobo oldimda hech kimmas mening.  
Men sizga bir baxtlar sovg'a qilayin,  
Faqat siz qalbimga to'kiling, keling.

Ayting xohishingiz, istagingiz ne,  
Bir zumda muhayyo qila olaman.  
Qo'limdan har narsa kelar istasam,  
Xohlamay ham sizni sevib qolaman.

## **ISTAK KUCHI**

Javon g'amgin turar burchakda,  
Kursichaga oshiq bo'lgan u.  
Kursi yaqin keladi goho,  
Uning uchun qandayin baxt bu.

Unga yetmoqlikni xohlaydi chindan,  
Umidi yagona, istagi bitta.  
Ajablanmang, erta yo indin,  
Javon yurib ketar, albatta.

## O'YIN

Kel, o'ynaymiz, ko'zing yum,  
Keyin sana yuzgacha.  
Eslayversam, yoshlikning  
O'yinlari o'zgacha.

Bir, o'n, to'qson, keyin yuz,  
Berkin, seni topaman.  
Qaerlarga yashrinding?  
Chor tomonga chopaman.

Ranjibon dilim xufton,  
Kechardim o'yindan voz,  
Qancha berkingan bo'lsang,  
Topolmaganligim rost.

Sening galing to'qson, yuz,  
Tepadamanmi, pastda.  
Topib olaverarding,  
Qiyalmasdan birpasda.

Ulg'ayib, yashirindik,  
Yuz, to'qson, o'n, so'ng bir de.  
Men seni topolmayman,  
Meni o'zing topib ke.



## **YURAKNI YAYRATING**

Yurakni yayrating,  
Dilni sayrating,  
Hattoki Xizrning qo'lidan tutmang,  
Tilla baliqni ham bir umr kutmang,  
Xohlang eslab qoling,  
Xohlang unuting.  
Mo'jiza yarating!  
Mo'jiza kutmang!



## KUZ

Sog'intirib qo'yding-ku, jonim,  
Nahot, qaytib keldingmi o, kuz!  
Ko'ylaklari bejirim xonim,  
Qanday uch oy yashadim sensiz.

Salga yig'lar eding o'shanda,  
Burkanganding gulga, yashilga.  
Sochlaringni tortqilab o'ynab,  
Atay tegar edim g'ashingga.

G'oyib bo'lding qaygadir birdan,  
Yomon qilar ekansan jahl.  
Sen arazchi bo'lsang, men rashkchi,  
Qanday yashay olamiz ahil.

Ne bo'lsa ham qaytding, xursandman,  
Chehrang qancha bo'lmasin zangor,  
Hamon seni sevish-la bandman,  
Yoshing o'tgan bo'lsa-da, bahor.

## MUNDARIJA

Mo'jaz mo'jiza.....	3
Umr manzarasi.....	5
Osmonning ustuni .....	6
Tayog'ida qancha hikmat bor .....	7
Tun va tong .....	8
Yillarki o'tsa-da ... ..	10
«Kampir cholga suyanib qolgan».....	11
Sen ketding .....	12
Yasholmasang kerak .....	13
Savol .....	14
Gulim .....	15
Vijdon azobi .....	16
Tushunaman .....	17
Menga juda keraksan .....	18
Talabalar shaharchasi .....	19
Ikkimiz ham yerda yashaymiz .....	20
Vijdon .....	21
Salom aytmang .....	22
Osmonni yupatish.....	23
Qish .....	24
Suratlar .....	25
Xayol .....	26
Siz mening .....	27
Istak kuchi.....	27
O'yin .....	28
Yurakni yayrating .....	29
Kuz .....	30

*Adabiy-badiiy nashr*

JO'RABEK JAHON

TUYG'ULAR SHAHARCHASI

*She'rlar*

Muharrir: *U.Qo'chqorov*

Rassom: *O.Qozoqov*

Badiiy muharrir: *A.Mamasoliyev*

Texnik muharrir: *N.Suvonov*

Nashriyot litsenziyasi №181.08.12.11. Bosishga 2014-yil 20-yanvarda berildi. Bichimi 70x90  $\frac{1}{32}$ . Ofset bosma usulida bosildi. «ArnoPro» garniturası. Shartli bosma tobog'i 1,0. Nashr-hisob tobog'i 1,0. Adadi 20 000 nusxa. Buyurtma № \_\_

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «ADIB» nashriyoti.  
100128. Toshkent. «O'zbekiston» ko'chasi, 16-uy.  
Tel: (371) 245-89-24.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. 100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.